

XOR SAN'ATI IJROCHILIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR.

O'zDSMI "Vokal" kafedrası
dotsent v.b. D.M.Malikova

Аннотация: Мазкур мақолада бугунги кун хор санъати, ижрочилиги, унинг ёш авлод тарбиясидаги аҳамияти ҳамда профессионал хор жамоаларининг концерт чиқишларидаги инновацион янгиликлари, замонавий хор ижрочилигидаги муаммо ва ечимлар хусусида фикрлар баён этилган.

Калит сўзлар: а капелла, хор, хормейстер, дирижёр, ауттакт, ритм, темп, дикция, динамика, репертуар, дуэт, трио, квартет, инновация.

Аннотация: В данной статье изучены и анализированы проблемы и решения современного профессионального хорового искусства, об инновационных новшествах и внедрения их в исполнение хоровых произведений.

Ключевые слова: а капелла, хор, хормейстер, дирижёр, ауттакт, ритм, темп, дикция, динамика, репертуар, дуэт, трио, квартет, инновация.

Annotation: This article examines and analyzes the problems and solutions of modern professional choral art, about innovative innovations and their implementation in the performance of choral works.

Key words: a capella, chorus, choirmaster, conductor, auftakt, rhythm, tempo, diction, dynamics, repertoire, duet, trio, quartet, innovation.

Musiqа – ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch bera oladigan jon ozug'idir.

Ma'lumki, estetik hissiyotni tarbiyalash, milliy g'urur, milliy tuyg'u, milliy qadriyatlar, an'analarga sadoqat, ona zaminga hurmat – bularning barchasi insonga uning yoshlik davrlaridan boshlab singdiriladi.

Xalqimizning bugungi hayotida qo'shiqchilik san'ati alohida o'rin tutadi. Musiqasiz, qo'shiqsiz turmush tarzimizni tasavvur qilish qiyin. Qo'shiq insoniyatning ichki dunyosini boyitadi va hayotini go'zallik sari chorlaydi.

Kuy - qo'shiq insonning inson bo'lib ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishi va yashashi uchun asosiy ruhiy - ma'naviy omil hisoblanadi. Jamoa ijrosida bu qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyati, ta'sirchanligi yanada kuchaydi.

Xor qo'shiqchiligi bu inson badiiy faoliyatining eng keng shaklidir.

U insoniyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlamini jadal badiiy faoliyatga va umumiy lashuvga chorlaydi. Jamoa bo'lib kuylash insonlarni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy va dunyo musiqa klassik durdonalariga qiziqish

tugʻdirib, birlashtiradi. Insonlarni ahillik va birdamlikka chaqirish, ularga maʼnaviy barkamollikka yetishish va ongini oʻsishida yordam beradi.

Sanʼat turlari va ularning ahamiyati haqida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch” asarida quyidagicha fikrlar yozganlar: “Biz bugungi kunda taʼlim - tarbiya sohasidan boshlab, matbuot, televideniye, internet va boshqa ommaviy axborot vositalari teatr, kino, adabiyot, musiqa, rassomlik va xaykaltaroshlik saʼnatigacha, bir soʻz bilan aytganda, insonning qalbi va tafakkuriga bevosita taʼsir oʻtkazadigan barcha soxalardagi faoliyatimizni xalqning maʼnaviy ehtiyojlari, zamon talablari asosida yanada kuchaytirishimiz yangi bosqichga koʻtarishimiz zarur”. [3-B-129]

Xor sanʼati ham insonlarni maʼnaviy saviyasini, badiiy didini oshirishga, ularni birlashtirishga va insonlarda estetik zavq uygʻota oladigan sanʼat turlaridan biridir. Bu sanʼat sogʻlom yosh avlodni, yoshlarning maʼnaviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy gʻurur, vatanparvarlik, nafosat va ijodkorlik tarbiyasini amalga oshirishga, dunyoqarashini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni oʻstirishga xizmat qiladi.

Xor kuylash sanʼati –vokal musiqali asarni jamoa boʻlib ijro etishdir. Xor sanʼati insonlarda chuqur estetik zavq uygʻotadi, ularni birlashtiradi, hamda maʼnaviy saviyasi, badiiy didini oshirishga yordam beradi.

Xor – bu qoʻshiqni, musiqani cholgʻu joʻrligida yoki joʻrsiz, yaʼni **a` kapella** ijro etuvchi jamoa. Xor sanʼati tarixi asosan Yevroʻpada yaralib, akademik yoʻnalishda kuylangan.

Xor atamasi – yunonchadan-“**choros**” soʻzidan olingan boʻlib, jamlovchi tushuncha: “yigʻin”, “toʻda” kabi maʼnolarni anglatadi:

1. qadimiy grek antik teatri ishtirokchilari jamoasi, birgalikda kuylovchi, deklamatsiya etuvchi;

2. joʻrsiz va joʻrli vokal asarlarni ijro etuvchi jamoa.

Oʻzbekistonda bu sanʼat turi kech rivojlana boshlagan. Oʻrta Osiyo xalqlari hayotida qadim zamondan yakka va ansambl turli tarzda qoʻshiq aytish anʼanalari boʻlgan. Yigit va qizlarning toʻylarda aytadigan yor-yor, oʻlan, yallalar ayni ansambl koʻrinishida ijro etilgan .

Yevroʻpa xor sanʼatining Oʻzbekiston hududida paydo boʻlishi va rivojlanishi unisonlikdan koʻpovozli xor sanʼatiga zamin yaratdi.

1918 yil Turkiston milliy konservatoriyaning ochilishi jamoa boʻlib kuylashni keng ommaviylashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1922 yil Turkiston xalq konservatoriyasi musiqa bilim yurtiga aylantiriladi. 1936 yil Toshkent Davlat konservatoriyasi ochildi. Xuddi shu yili Oʻzbek Davlat Filarmoniyasida professional xor jamoasi - **kapellani** tashkil etishga harakat qilindi. Jamoa tarkibiga kirgan ijrochilarga bir vaqtning oʻzida vokal-xor

malakalari va nota savodxonligi bo'yicha mashg'ulotlar berib borilardi. Kapella rahbari M. Lepexin, xormeyster esa M. Burxonov edi.

O'zbekistoniing musiqa madaniyati rivojlanishi milliy operani paydo bo'lishiga olib keldi. Xor jamoalari rahbarlarini tayyorlash va sonini ko'paytirish maqsadida Toshkent davlat konservatoriyasi va musiqa bilim yurtini xor dirijyorligi bo'limlari ochildi. 1951 yilda Moskvada o'zbek adabiyoti va san'ati dekadasi o'tkazildi. Dekadada 1937 yil dekadasi dan keyingi o'tgan vaqt ichida o'zbek musiqa san'ati erishgan yutuqlari yakunlanadi. Dekadada konsertlarda S.Yudakovning «Mirzacho'l», M.Ashrafiyning «Baxt haqida qo'shiq» kabi xor asarlari ham ijro etildi. 1952 yilda o'zbek davlat filarmoniyasi huzurida birinchi xor jamoasi tuzildi. Kapellaning badiiy rahbari etib S.A.Valenkov xormeyster qilib A.Sultonov tayinlangan edi. Qisqa vaqt ichida jamoa katta zafarlarga erishdi. Milliy repertuarlarni vujudga keltirish uchun ko'plab kompozitorlar hozirjavoblik bilan asarlar yaratdilar. Ko'plab o'zbek, tojik, uyg'ur kuylari qayta ishlandi. M. Burxonovning ijodi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Kapella respublika bo'ylab konsertlar uyushtirdi. 1957 yili jamoaga A. Sultonov badiiy rahbar, B. Umidjanov xormeyster etib tayinlandi. 1959 yili O'zbek xor kapellasi III Dekada kunlarida muvaffaqiyatli qatnashadi. Yillar mobaynida jamoaga bir qator iste'dodli xormeyster- dirijyorlar rahbarlik qilib keldilar, ulardan: R. Xublarov, M. Umarov, X. Vaxidov, V. Kal'tman, A. Xamidov, J. Shukurov, D. Jdanovlar. O'zbek xor madaniyati rivojlanishida 1960 yili O'zbekiston davlat teleradio qo'mitasi qoshida tashkil topgan xor jamoasi (badiiy rahbar B.Umidjanov) faoliyati muhim ahamiyatga ega.

Respublikada xizmat ko'rsatgan xor jamoa va kapella xonandalarining yil sayin ijrochilik mahorati o'sdi va murakkab xor a kapella, vokal-simfonik asarlar, suitalar repertuarlaridan o'rin oldi. Kompozitorlar M.Burxonov, I. Akbarov, S. Yudakov, D. Zokirov, M. Nasimov, S. Jalil, G'.Qodirov, S.Boboyev, B.Umidjonov, B.Lutfullaev, M.Bafoev, N.Norxo'jayev, H. Raximov, A.Mansurov, D.Omonullayevlar xor jamoalari bilan ijodiy hamkorlik qilganlar.

Xorlar turlari va tuzilishi bo'yicha turli ko'rinishlarda bo'ladi. Ular: bolalar, ayollar, erkaklar va aralash xorlar. Jamoalar ikki, uch va undan ko'p ovozlardan iborat bo'ladi. Xor turi xorning tuzilishi va sifatiga qarab aniqlanadi. Xorlar turiga qarab ikkiga bo'linadi: yaxlit (bir jinsli) va aralash xorlar.

Yaxlit - bir jinsli xorlarga: bolalar xori - soprano, diskant va alt ovozlari; ayollar xori - soprano va alt ovozlari; erkaklar xori - tenor, bariton va bas ovozlari tashkil etadi.

Xor jamoalari haqida so'z yuritilganda eng avvalo dirijyor, xormeyster, yohud badiiy raxbar va bosh dirijorning jamoa oldidagi katta mas'uliyatini ta'kidlab o'tish zarur.

Xor qo'shiqchiligi bu inson badiiy faoliyatining eng keng shaklidir. U insoniyatning deyarli barcha ijtimoiy qatlamini jadal badiiy faoliyatga va umumiy lashuvga chorlaydi. Jamoa bo'lib kuylash insonlarni xalq qo'shiqchiligi merosiga, shuningdek, milliy va dunyo musiqa klassik durdonalariga qiziqish tug'dirib, birlashtiradi. Insonlarni ahillik va birdamlikka chaqirish, ularga ma'naviy barkamollikka yetishish va ongini o'sishida yordam beradi.

Xor jamoalari haqida so'z yuritilganda eng avvalo dirigor, xormeyster, yohud badiiy rahbar va bosh dirijorning jamoa oldidagi katta mas'uliyatini ta'kidlab o'tish zarur.

"Dirigor" so'zi turli tillarda turlicha talaffuz qilinsada - bu so'z rahbar, boshliq, direktor ma'nosini anglatadi. Uning asosiy vazifasi – bu jamoaning hayoti faol va yaxshi tashkillashtirilgan bo'lishini nazorat qilishdan iborat.

Dirigor - xor artistlarini musiqiy asarni uyg'unlikda ijro etishlari, ular asarni birga boshlab birga tugatishlari, guruhlar bir maromda kuylashni boshlashlarini, pauzalarni vaqtida ushlab, ijroda yagona ritm va tempga moslashtirishi, turli dinamik tuslarni vaqtida ko'rsatishi, ularni ijroga yo'naltirish uchun belgi - **auftakt** berishi va boshqarishi lozim. Bu mezonlar dirigor hox yosh, hox qari, tajribali yoki o'z faoliyatini endi boshlayotgan bo'lsin - barchasiga barobar tegishlidir. Albatta, dirijorlik tajribasini amaliy faoliyatsiz to'plab bo'lmaydi. Biroq bu faoliyatdan oldin, ya'ni boshlovchi dirigor orkestr yoki xor qarshisida turish huquqini qo'lga kiritguncha qilinishi lozim bo'lgan ishlar ko'p. Buning uchun endi faoliyat boshlayotgan dirigor alohida qobiliyatga ega bo'lishi kerak, bu - o'ta muhimdir. Bundan tashqari u fortepianoni yaxshi chalishi, ya'ni musiqiy madaniyat va bilimga ega bo'lishi lozim. Musiqa sadolarini yaxshi **ilga'ash**, ritm va temp hissi, musiqiy xotira, temperament va tasavvur kabi xususiyatlardan tashqari dirigor yana bir qator alohida jihatlarga ham ega bo'lishi kerak. Dirijorning qo'l harakatlari mukammal darajada ma'nodor bo'lishi, qo'llarning maqsadga muvofiq va ohista harakatlari hamda shunga yarasha yuz ifodasi yordamida xor artistlariga musiqiy asarning mohiyatini yetkaza olishi lozimdir. Bularning bari dirijorga musiqa asarlarini tinglovchi oldida ijro etilayotgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir vaziyatlardan muvaffaqiyat bilan chiqib ketishi uchun kerak bo'ladi.

Dirijorda tashabbuskorlik, qat'iyatlilik, intizomlilik, tashkilotchilik iste'dodi uyg'unlashgan bo'lib, shu bilan birga jamoaga nisbatan xushmuomalalik, osoyishtalik va chuqur his eta bilish quvvati namoyon bo'lishi kerak. Xor bilan yaxshi ishlash uchun dirigor ziyrak va oqil pedagog-tarbiyachi bo'lishi lozim. Bunga qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, mardlik halollik va prinsipiiallik kabi xususiyatlarsiz haqiqiy dirijorni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Dirijorning vazifasi - xorni o'z irodasiga bo'ysundirgan holda barcha xor artistlarini musiqani yakdil his qilishini ta'minlash, ularni birlashtirib bir qancha turli shaxsdan o'zining har bir harakatiga qarab ish tutuvchi yagona jamoa, organizm yaratishdan iborat.

Dirijor ijodiy jarayonda doimo o'zini tuta bilishi, yaxshi kayfiyatda bo'lishi, ijod jarayonida o'zini qo'lga ola bilishi, asar ustida ishlashda bor mahoratini ishga solishi, dirijorlik bilimlaridan to'g'ri foydalana bilishi shartdir.

Xorning muvaffaqiyatli faoliyati uchun xorda vokal ishlari juda zarur tamoyillardan biridir. Vokal ishlarining maqsadi talabalarga xorda to'g'ri kuylash malakalarini o'rgatishdir. Vokal-xor ijrochiligi - nafasli tovush hosil qilish, sof intonatsiyaga erishish, umumiy ansambl, ritmik ansambl va xor sozini saqlash, aniq diktsiya, nyuansirovka ustida ishlash, talabalarning kuylashidagi nuqsonlarni bartaraf etish, to'g'ri ovoz hosil qilish, tovush yo'nalishi malakalarini o'rnatish kabi ishlarni o'z ichiga oladi. Xor dirijori tanlangan asarni ijodiy talqin qilish bilan birga o'zining badiiy intilishi va harakatlari doirasida jamoasiga ijodiy ta'sir ko'rsata olishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy xor - bu qanday ta'rifga loyiq? Bugungi kunda ushbu san'at o'zining aniq bir maqsadlarini yodidan chiqardimi yoki uni anglay olmayaptimi?

Respublikamizda teatrlar xorlaridan tashqari professional xor jamoalardan 4 tasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda: O'zbekiston Davlat kapellasi, Respublikada Xizmat ko'rsatgan xor jamoasi, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi qoshidagi MTS xor jamoasi (musiqali teatr studiyasi) hamda Yoshlar simfonik orkestri qoshida tashkil etilgan yoshlar xori. Ulardan kapella va MTS, yoshlar xorlari ko'proq chet el va o'zbek kompozitorlarining xor uchun yozgan asarlarini tinglovchilarga manzur etsa, Respublikada Xizmat ko'rsatgan xor jamoasi milliy, ya'ni o'zbek kompozitorlarining hamda xormeysterlarning xor uchun yozgan asarlarini yoki qayta ishlangan xalq qo'shiqlarini targ'ibot va tashviqot etishlari kerak. Respublikada Xizmat ko'rsatgan xor jamoasi ijodi xususida to'xtalib o'tsak. Jamoa o'zining milliy ijro uslubi bo'yicha boshqa xor jamoalaridan ajralib turadi. Lekin bu jamoa ijrosidagi yangi asarlar qani? Mohir xormeyster, dirijyor, kompozitor Botir Umidjonov xor jamoasi bilan faoliyati jarayonida xalq musiqa ijrochiligi tabiatini teran anglagani bois, xor ijrochiligining akademik yo'lini – milliy xonandalik an'analari bilan muvofiqlashtirib, o'zbekona xorning mukammal va **o'ziga xos yangrashini** topishga erishgan edi va bu milliy ijro yonalishni ulardan keyingi xormeysterlar an'anaviy tarzda davom ettirgan edilar. Lekin bu ijro yo'nalishi bugungi kunda yanada takomillashib borish o'rniga sustlashib bormoqda. Bu jamoa ba'zida konsertlar yakunida bir-ikki estrada ijrochilarimiz qo'shiqlariga bek-vokal sifatidagina sahnada ko'rinib qolyapti. Jamoa bugungi kundagi xor san'ati talablari yoki tempida ishlay

olmayaptimikan? Respublikamiz bo'yicha ba'zi viloyatlarda konsertlar berib, xor san'atini targ'ibot qilmoqchi bo'lgan jamoaning repertuari bir necha yildan buyon o'sha-o'sha! Ba'zi konsertlarda esa fonogrammaga chiqishlar bo'lyapti. Bunday ijro ko'rinishi nimadan dalolat beradi?

Birinchidan, jamoa rahbarining kompetentsiyasi yetarli darajada emasligini; **ikkinchidan**, yangi asarlar kuylash uchun jamoa yoki dirijyorning professionalligi yetishmasligi; **uchunchidan**, konsert liboslarini folklor jamoasi ijrosiga hos etib o'zgartirganlik bilan asarlar 10-20 yil avval kuylangan bo'lsa; **to'rtinchidan**, konsert jarayonida dirijyor asar tonalligini yoki "ton" bera olmasa, yoki ushbu "ton"ni kamerton orqali emas, balki uyali telefon orqali, boz ustiga eshitgan tovushni ham noto'g'ri kuylab bersa; noto'g'ri berilgan ton asosida asarning ijrosi va mohiyati, jarangi umuman to'g'ri kelmasa. Xor ijrosi uchun muhim bo'lgan bunday talablarni ko'plab sanab o'tishimiz mumkin. Jamoaning konsert chiqishlarida mana shunday bir qator kamchiliklarni ko'rib eshitayotgan tinglovchi va soha bilimdonlari keyingi konsertga tashrif buyurarmikanlar? Konsertlar sifatining pasayib ketishi shu yo'nalishda tahsil olib kelayotgan bo'lajak xormeyster va dirijorlarning qiziqishlarini so'ndirib qolmasmikan?

Xaqiqatdan ham respublikamizda yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma'naviyatli, barkamol bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lidagi ishlarining muhim jabhalaridan biri bo'lmish bu san'at turi zamon talabiga javob beraolyaptimi? Yuqorida aytib o'tilgan bu muammolarning eng tog'ri yechimi – jamoalarga tayinlanadigan badiiy rahbar va bosh dirijorlarning bilim, tajriba hamda intellektual salohiyatiga bog'liq deb o'ylaymiz.

Biz bugungi kunda o'zbek xalqining tarixiy-madaniy va intellektual merosini yanada ko'z qorachig'dek asrab – avaylash hamda ko'paytirish, shuningdek, yosh avlodni umuinsoniy va milliy an'analar hamda qadriyatlar ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratishimiz zarur.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan baxra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganib olishimiz lozim. O'zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san'at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Bu san'at turlari chet elda keng e'tirof etilgan. Milliy va jahon eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni manaviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak " deb takidlaganlar. [2-B-150] Bu mazkur masala davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shiddat bilan rivojlanib kelayotgan musiqiy hayot xor dirijoridan keng qamrovlikni, professional mahorati ustida muntazam izlanib borishni talab

etmoqda. Zamonaviy xor jamoasi konsert repertuarini shakllantirishda xormeysterlardan musiqiy janrlarni juda mukammal bilish va ularni amalda ijro etishni qo'llay bilish malakalariga ega bo'lish - nihoyatda muhimdir.

Xor ijrochiligining an'anaviy ko'rinishi zamonaviy tinglovchi uchun zerikarli bo'lib qolmoqda. Shu bois professional xor jamoalari konsert dasturlarida tinglovchilar soni keskin kamayib bormoqda. Ushbu san'at turi ham estrada shou-tomoshalari kabi maxsus rangli chiroqlar, sahna, dekorasiya bezaklari (LED ekran), sahna kiyimlarini zamonaviyroq bo'lishi, xor joylashuvini o'zgartirib turilishi, turli raqs elementlari bilan jamoani harakatlanib turishini talab etmoqda. Respublikamizda faoliyat ko'rsatib kelayotgan professional xor jamoalarining konsert - ijodlari bugungi kun talabiga deyarli javob bermayapti. Shu bois balki ularning konsertlarida tinglovchilar soni kamayib bormoqda. Lekin yosh, ijodkor ikki jamoa: "Yoshlar simfonik orkestri" qoshida tashkil etilgan Yu. Xusnutdinova rahbarligidagi yoshlar xori va "Bulbulcha" bolalar ashula va raqs ansambli qoshidagi o'smirlar xori rahbari O'. Shokarimovlarning **innovatsion yangiliklarini** qayd etib o'tishimiz lozim. Bu jamoalarning bir qator konsert chiqishlari yuqorida ta'kidlangan zamonaviy xor ijrochilik talablarini aynan o'zida mujassamlashtirib kelmoqda.

(Rasm 1)

1-rasm. "Bulbulcha" bolalar ashula va raqs ansambli qoshidagi O'. Shokarimov rahbarligidagi o'smirlar xori konsert chiqishi

Eng avvalo ularning rang – barang repertuari ustida to'xtalsak. Repertuar dasturi Yevropa, o'zbek kompozitorlarning XV -XXI asrlarda yaratilgan turli janr va xarakterdagi klassik hamda zamonaviy asarlarlardan tashkil topgan. Konsert jarayonida turlicha joylashuvlar: alohida ayollar yoki erkaklar guruhlar, yoki sahnaviy bir ko'rinishlar, soprano, alt, tenor, bariton, bass ovozlari noan'anaviy joylashuvlari ko'rinishlari hamda duet, trio, kvartet chiqishlari o'rtasidagi konsert jarayoni vaqt oralig'ida xor jamoasi sahnaviy liboslarini o'zgartirib chiqishlari tinglovchilarni o'ziga jalb etdi. Asarlar xarakteriga qarab sahnaviy ko'rinish va raqs elementlari turli millat urf-odatlarini, haddi-harakatlari, an'analari bilan uyg'unlikda sahnalashtirilgan. Sahnaviy joylashuvning noan'anaviy tez-tez turli geometrik shakllarda o'zgarishlari xor ovozlari dagi ijro sifatiga umuman xalaqit bermagan. Bunda dirijorlarning ritmik, dinamik ansambllar va badiiy ijro uyg'unligiga erishish uchun xor bilan o'ta yuqori professional darajadagi talab bilan ishlaganliklari asarlar ijrosida yaqqol ko'rinish turibdi.

Xor artistlarining bunday xor chiqishlarida albatta har bir asarni mukammal o'zlashtirib ijro etishlari konsert dasturining muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydi.

(Rasm 2)

2-rasm. “Yoshlar simfonik orkestri” qoshidagi Yu. Xusnutdinova rahbarligidagi yoshlar xori konsert chiqishi

Bugungi kun talablari bo'yicha bo'lajak xormeyster va dirijorlardan nafaqat mutaxassislik ko'nikmalari va malaka talablari balki ulardan bir qator shaxsiy dunyoqarash, estetik ahloqiy madaniyat, intellekt kabi sifatlar ham talab etiladi. Bularsiz dirijor na tajriba egallashi, na xor jamoasi bilan ishlashdagi amaliyotida ularni qo'llay olmasligi mumkin. Yuqorida qayd etilgan talablarni o'ta professional dirijor, kuchli va bilimli shaxsgina amalga oshirishi mumkin.

Madaniyat, san'at, jumladan musiqa san'ati asoslari taraqqiyoti O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **2017-2021** yillarga mo'ljallangan **Harakatlar strategiyasining** negizlaridan birini tashkil qiladi. Mazkur hujjat mamlakatimiz taraqqiyoti uchun dasturulamal bo'lmoqda, hujjatning **to'rtinchi** ustuvor yo'nalishida **madaniyat va san'at sohalarini** yanada taraqqiyot ettirish, beshinchi ustuvor yo'nalishida esa jamiyatni **turli madaniy tahdidlardan** muhofaza qilish vazifalari belgilab qo'yilgan. Yoshlar o'rtasida madaniyat va san'at asarlariga bo'lgan qiziqishni oshirish ajdodlarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan an'analarni targ'ib qilish, yosh iqtidorli ijodkorlarni Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va fidoiylilik ruhida tarbiyalashga hizmat qiliuvchi “Bahor nafasi” xalqaro san'at festivalini, “Musiqaga chorlaydi, yoshlar” madaniyat haftaligi va bir qator festivallar o'tkazish rejalashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimiz ijodkor ziyolilari bilan 2017 yil 3 avgustda o'tkazilgan uchrashuvda: “Inson qalbini, uning dardu-intilishlari Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini betakror so'z, ohang va ranglarda tarannum etishni o'z hayotining ma'no-mazmuni deb biladigan siz muhtaram ijod ahlining mehnati naqadar mashaqqatli, mas'uliyatli va sharaflidir ekanini barchamiz albatta bilamiz” [1-B-1]- deb yurtimizning o'zining noyob iste'dodi va mahoratini xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga bag'ishlagan, inson qalbining muhandislari bo'lgan ijodkor ziyolilarga doimo g'amxo'rlik masalasi O'zbekistonda bugun olib borilayotgan davlat siyosatida alohida o'rin egallashini ta'kidlab o'tdilar

Davlatimiz rahbari ushbu ma'ruzada madaniyatimiz va san'atimizning rivojlanish jarayonlari, bu boradagi ijobiy tendentsiyalar bilan birga, ayrim salbiy

holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta'siri holisona va tanqidiy baholanib, o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida atroflicha fikrlar yuritdilar. Ijodkor ziyolilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o'rni va vazifasi haqida muhim va dolzarb fikrlar bayon qilindi. Prezidentimiz tomonidan aytib o'tilgan qator kamchiliklar Respublikamizda tobora susayib borayotgan san'at turlaridan biri bo'lmish xor san'atiga ham taaluqlidir.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev xor san'atiga ham katta e'tibor berib kelayotganlarini yana bir dalili bo'lib 2018-2019 o'quv yilidan O'zbekiston Davlat Konservatoriyasida "Xor honandaligi" bo'limini tashkil etilishidir. Bu albatta xor san'atini kelajakda yanada rivojlanishiga va professional xor jamoalarini etuk, malakali mutaxassislar bilan ta'min etishda katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda xor san'ati avvalgi yillarga nisbatan saviyasi biroz bo'lsa-da, tushgan, bu san'at turiga bo'lgan qiziqish ozgina so'ngan. Bu albatta zamonaviy estrada, chet el musiqasidan kirib kelayotgan turli musiqa uslublari ta'siri ostida susayotgandir, lekin bu masalaga ham yechim izlasa bo'ladi.

Har bir umumta'lim maktablarda olib boriladigan musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarga to'g'ri ta'lim berilsa, chet el klassik hamda O'zbekiston kompozitorlarining xor asarlari ijodiyotidan namunalar tinglansa ham katta yutuqlarga erishiladi. Bunday asarlarni tinglagan har qanday inson uni idrok etishga, tushunishga intiladi. Maktablarda ham kichik, ham o'rta guruhlardan xor jamoalari tashkil etilsa; xor jamoalari orasida turli konsert va bellashuv-tadbirlari olib borilsa, ommaviy axborot vositalari orqali xor san'atiga ko'proq e'tibor qaratilsa yuqorida qayd etilgan muammolar o'z yechimini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir " Xalq so'zi 2017 4 avgust
2. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida Toshkent O'zbekiston 1997
3. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch Toshkent Manaviyat 2008
4. Xarakatlar strategiyasi 2017-2021 Toshkent 2017
5. Shomaxmudova B.V. Xor lug'ati Toshkent Musiqi 2009